



## BOSHLANG'ICH SINIF "O'QISH SAVODXONLIGI" DARSLIKLARIDAGI TURG'UN BIRIKMALARNI TAHLIL QILISH USULLARI.

**Najmiddinova  
Mubinaxon  
Baxtiyorjon qizi**

*Qo'qon Universiteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-  
kurs talabasi*

Abstract

Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda iboralarning o'qitilishi mavzusiga bag'ishlangan. Unda boshlang'ich ta'limda iboralarning o'rni va ahamiyati, ularni o'qitish metodlari, shuningdek, bolalarning lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishdagi roli yoritilgan. Maqolada iboralarni o'qitishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan interfaol va ijodiy uslublar, o'quvchilarning qiziqishini oshirish uchun qiziqarli topshiriq va o'yinlardan foydalanish yo'llari haqida so'z yuritiladi.

**Keywords :** iboralar, nutq, mashq, yasama so'z, morfema

Boshlang'ich sinflarning ona tili va o'qish savodxonligi darslik kitoblarini kuzatganimizda iboralarga oid ma'lumotlar berilmaganini ko'rishimiz mumkin. Lekin boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi va o'qish kitoblarining aksariyat matnlarida iboralar berilgani bu boshlang'ich sinflarda iboralar mavzusi dolzarb ekanligidan darak beradi. Xususan, boshlang'ich sinf o'qish kitobida iboralar juda ko'plab matnlarda qo'llanilgan. Bu iboralar to'g'risida o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga ma'lumot berishni talab etadi.

2010- yilda qabul qilingan "Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standartida va o'quv dasturida boshlang'ich sinf o'qish kitobi fanidan "matndagi so'z, ibora, gaplarning ma'nolarini izohlay olish" deb uqtirilgan. O'quv dasturining mazmunida o'qish ko'nikmasi bo'limida esa "so'zlarning butunicha sidirg'a o'qish; matn mazmunini ongli o'zlashtirish shakldagi voqea-hodisalarning izchilligini belgilashda o'zaro bog'lanishi, tasviriy vositalarni matnda qo'llanishini bilish, maqol va iboralardan so'zlarni to'g'ri tanlay olish, mavzuni adabiy tilda talaffuz etishga o'rgatish deb belgilab qo'yilgan.

Bundan shuni bilish mumkunki, 4- sinf o'qish fanidan kitob bilan ishlash, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish tez, to'g'ri, ravon va ifodali o'qishga erishish, o'zbek va xorijiy bolalar yozuvchilari asarlarini o'qish, badiiy asarlarni sharhi, ifodali o'qish. Asar so'z boyligini oshira borish va nutqda faol qo'llash, o'qigan asarlar yuzasidan savol - topshiriqlar tuzish, badiiy asarlarni o'zaro qiyoslab, tegishli xulosa chiqarish bilan birga izohlash, iboralar ustida ishlashga ham katta urg'u berilgan. Yana

shuningdek, “Mazkur standart mezonlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligi (integratsiyasi), o‘qish, ona tili ta’limida belgilangan vazifalarning amalga oshishida asosiy omil hisoblanadi”, -deb belgilab qo‘yilgan. Bunda o‘qish kitobidagi matnlardagi iboralarni ona tilidan o‘tilgan iboralar to‘g‘risidagi ma’lumot orqali iboralar ustida ishlash mumkin.

O‘quvchilar lug‘at boyligining muhim qismi ibora va tasviriy ifodalar tashkil etadi. Ibora odatda bir so‘zga teng keladigan so‘zlar qo‘shilmasi bo‘lib, u nutq mazmunini boyitadigan, go‘zallashtiradigan va ta’sirchanligini oshiradigan muhim vositalardan biri sanaladi. O‘quvchilar nutqini iboralar bilan boyitish maqsadida berilgan so‘zlar o‘rnida iboralarni almashtirish yoki aksincha so‘zlar o‘rnida iboralarni qo‘llash, iboralarning ma’nosini sharhlash, berilgan iboralarga yangi ma’noli iboralar tanlash, berilgan iboralarga qarama-qarshi ma’noli iboralar tanlash kabi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar hali iboralarni izohlashga, yasama so‘zlarni morfemalarga ajratishga qiynaladilar. Buning uchun o‘qituvchi iboralar izohini tushuntirishda matn mazmunidan kelib chiqib, ularning ma’nodoshi, qarama-qarshisini ham tushuntirib borsa, so‘zlarning yasashida ham nazariy bilimlarini amaliyot bilan birgalikda olib borib, turli xil interfaol metodlardan foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘sib kelayotgan yosh avlodimiz ona tilimizning naqadar so‘zga boy ekanligini bilib, lug‘atlarini yangi, ma’noli so‘zlarga boyitib ulg‘ayadilar. O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda esa iboralarning ham o‘rni muhimdir. Ma’nosi bir so‘zga teng keladigan so‘zlar birikmasi yoki gaplarga ibora deyiladi. Iboralar gap tarkibida yaxlit holda bitta so‘roqqa javob bo‘ladi va bitta gap bo‘lagi vazifasida keladi. Iboralar nutqni ta’sirchan, jozibali qiladi. Ular tilshunoslikning frazeologiya bo‘limida o‘rganiladi. Masalan: Bel bog‘lamoq – shaylanmoq, otlanmoq. Elchibek uning tez-tez nafas olayotganini sezdi, tiyran ko‘zlarining yiltirashidan jiddiy gapga bel bog‘laganini angladi.

Boshlang‘ich sinflarda turli janrga oid asarlar tarkibida ham iboralar keltirilgan. Agar o‘qituvchi har bir ibora izohini tushuntirib bersa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Quyida 1-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi (1-qism) darsligidagi matnlarda keltirilgan iboralar izohini keltirib o‘tamiz.

1-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida keltirilgan iboralar izohi

1-sinf 1-qism

Hoshimjonning oilasi “Sariq devni minib” romanidan

Ikki-uch og‘iz – ozgina, andak. Ruxsat bersangiz, oilamiz haqida ikki-uch og‘iz so‘zlab o‘tsam: dadam qishlog‘imizda traktorchilik qiladi.

Ko‘zi tushib qolmoq – bexosdan, kutilmaganda ko‘rmoq. Nega desangiz, ko‘chako‘yda hamshiralarga ko‘zi tushib qolsa, ukol qiladi deb, tog‘dan tog‘ga<sup>1</sup>qochadi.

<https://ilmfanvatalim.uz/index.php/ift/article/view/1032> 2-bet

<https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/download/134/119/120> 1-2-betlar.

O‘shaning bo‘ynida (o‘xshashi:bo‘yniga olmoq, zimmasiga olmoq) – bajarishga rozi bo‘lmoq. Hovlini supurish, idish-tovoqlarni yuvish o‘shaning bo‘ynida.

Vaqt qadri Abdulla Po‘latov

Asabi tarang bo‘lmoq (o‘xshashi: qoni qaynamoq, jahli chiqmoq, asabiga tegmoq) – achchiqlanmoq, qizishmoq.

Boqivoy kech kirganda

Kirib keldi chang bo‘lib.

Bobosi qarar unga

Asabi tarang bo‘lib.

Navro‘z taronasi (yakkaxon) Anvar Obidjon

Ko‘ngilga yorug‘ tushmoq (o‘xshashi:ko‘ngli yorishdi, ko‘ngilni yoritdi) – ko‘nglidagi g‘ashlik tarqadi.<sup>2</sup>

Ko‘ngillarga yorug‘ tushdi.

Shudgorlarga urug‘ tushdi.

Jon bag‘ishlamoq ( o‘xshashi:jon tikmoq) – butun kuch imkoniyatini, hatto hayotini bag‘ishlamoq.

Urug‘larga jon bag‘ishlab,

Yomg‘irlar ham qutlug‘ tushdi.

“H” ning aytganlari. (89-bet)

Quloq solmoq – tinglamoq

Menga qara hoy o‘quvchi,

Topshiriqqa quloq sol-chi.

Birin-ketin so‘zlar kelar,

Oxirida bo‘sh joy bo‘lar.

### 1-SINF ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI 2-QISM

“Serkaboboning hiylasi” ertagi (13-bet)

Adabini bermoq – qilmishiga yarasha jazolamoq. O‘sha bo‘rining adabini beraman. G‘azablanmoq (o‘xshashi:jahli chiqmoq) – achchiqlanmoq. Arslon g‘azablanibdi.

Mehmon bo‘lish odobi

Kamola Sodiq qizi O‘zini tutmoq (“o‘xshashi:o‘zini qo‘lga olmoq) – O‘z xatti-harakatini irodasiga bo‘ysundirmoq. Mehmonda o‘zini tutishiga qarab, bolaning odobi haqida bilib olish mumkin ekan.

“G‘alati ziyofat” ertagi (33-bet) Qo‘l urmoq – tegmoq (ertakda bo‘ishsizlik shaklida kelgan:qo‘l urmabdi-tegmabdi). Quyvon kelib qarasa, mehmonlar ovqatga qo‘l urmabdi.

Mehmon haqida she‘r.(34-bet) Bag‘ri ochiq (o‘xshashi:ko‘ngli ochiq) – yaxshi niyatli,boshqalarga yomonlikni ravo ko‘rmaydigan. Bizning uydan doim mehmon Arimaydi. Bag‘ri ochiq kishilar hech Qarimaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ona tili o‘qish savodxonligi darslarida keltirilgan har iboralar izohini o‘quvchilarga to‘g‘ri yetkazib berish, o‘quvchilarni so‘z boyligini oshirib borishga va o‘z fikr tushunchalarini izchil va erkin, to‘g‘ri bayon eta olishga o‘rgatishi bilan o‘ta muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. I.Azimova,K.Mavlonova,S.Quronov,Sh.Tursun.1-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi.Toshkent-2021
2. <https://ilmfanvatalim.uz/index.php/ift/article/view/1032>
3. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/download/134/119/120>